

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BADIIY NUTQDA KONTEKSTUAL FRAZEOLOGIK SINONIMLARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL IMKONIYATLARI

Botirova Rayxona Abdurofiq qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: rayxonabotirova39@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-4198-5893>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada kontekstual frazeologik sinonimlarning yuzaga kelish omillari va badiiy matndagi semantik-funksional imkoniyatlari o'rganilgan. Kontekstning frazeologik sinonimlarni hosil qilishdagi o'rni kontekstual tahlil va komponent tahlil metodlari yordamida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: frazeologik sinonim, kontekst, badiiy matn, lug'aviy ma'no, kontekstual ma'no, semantik moslashuvchanlik.

СЕМАНТИКО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ КОНТЕКСТУАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ СИНОНИМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ

Ботирова Райхона Абдурафик кизи

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, базовый докторант.

Аннотация.

В статье исследуются факторы возникновения контекстуальных фразеологических синонимов и их семантико-функциональные возможности в художественном тексте. Роль контекста в формировании фразеологических синонимов обосновывается с помощью методов контекстуального и компонентного анализа.

Ключевые слова: фразеологический синоним, контекст, художественный текст, лексическое значение, контекстуальное значение, семантическая гибкость.

SEMANTIC-FUNCTIONAL POTENTIALS OF CONTEXTUAL PHRASEOLOGICAL SYNONYMS IN ARTISTIC SPEECH

Botirova Rayxona Abdurofiq qizi

Sharof Rashidov Samarkand State University, PhD Student.

Abstract.

This article examines the factors contributing to the emergence of contextual phraseological synonyms and their semantic-functional potential in literary texts. The role of context in the formation of phraseological synonyms is substantiated through contextual and componential analysis.

Keywords: phraseological synonym, context, literary text, lexical meaning, contextual meaning, semantic flexibility.

Kirish. Tilshunoslikda so'nggi tadqiqotlar tilning o'zidan til egasiga qaratilmoqda. Bunday yondashuv antroposentrik paradigma deb atalib, matn muallifining shaxsiyati hamda u yaratgan matn o'rtasidagi bog'liqlik chuqur o'rganiladi [6; 27-b.]. Sinonimiya hodisasi ham bugunga qadar asosan leksikologiya sathida keng o'rganilgan bo'lsa, endilikda muallif sinonimlari ham tadqiq qilinmoqda. Biz ushbu maqolada iboralarning kontekst doirasida ma'nodoshligi hodisasini tahlil qilamiz. Frazeologik ma'nodoshlik va kontekstual sinonim iboralarga doir tadqiqotlar ham alohida o'rganilishni talab qiladi. Umuman olganda, kontekstual sinonimlar til birligi sifatida ma'nodosh bo'lmagan, ma'lum bir matn doirasidan kelib chiqqan holdagina sinonim bo'ladigan birliklardir. Badiiy asar matnida frazemalar kontekst talabi bilan mazmuniy o'xshashlikni hosil qiladi. So'zlar singari frazeologik birliklarning ham potensial imkoniyatlari kontekstda aniqlanadi, chunki iboralarning lug'atlarda beriladigan tasnifi bilan ularning nutq tarkibidagi jonli faoliyati o'rtasida mutlaq tenglik yo'q [5; 128-b.]. O'zbek tilshunosligida frazemalarning kontekstual tabiati xususida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, I. Qo'chqortoyev, H. Qahhorova, M. Yo'ldoshev frazeologizmlarning semantik, uslubiy va funksional xususiyatlarini o'rganishgan. Biroq iboralarning kontekstual ma'nodoshlik hosil qilish jarayonlari, kontekstual frazeologik sinonimlarning badiiy matn obrazlilik, ekspressivligini oshirishdagi imkoniyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi badiiy matndagi kontekst va frazeologizm munosabati, iboralarning kontekstual sinonimiya hosil qilish orqali matnning badiiy-estetik qimmatini oshirishini ochib berishga yo'naltirilgan.

Tadqiqot jarayonida frazeologizmlarning badiiy matndagi kontekstual imkoniyatlari va badiiy matnda reallashayotgan ma'nolarini aniqlash uchun misollar Tohir Malik asarlaridan matn va abzas shaklida tanlab olindi. Iboralarning kontekstual tabiatini yoritish uchun bir qancha metodlardan foydalanildi. Frazemalarning jumla va matn qurshovi ta'sirida yuzaga chiqadigan ma'nolarini aniqlash uchun kontekstual tahlil metodidan, iboralar tarkibidagi faqatgina kontekstda reallashayotgan ma'nolarni aniqlash uchun komponent tahlil metodidan foydalanildi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" va Shavkat Rahmatullayevning "O'zbek tili frazeologik lug'ati" ushbu tadqiqot uchun leksikografik

asos vazifasini bajardi.

Sinonimlar faqatgina til tizimida emas, yozuvchining ongida, dunyoqarashida ham shakllangan bo'ladi. Til tizimida o'zaro ma'nodosh bo'lmagan iboralar yozuvchining ijod mahsuli hisoblangan badiiy matnda kontekstual sinonim bo'lib kelishi mumkin. Masalan:

– Chehrangizga parishonlik yarashmas ekan. G'am cheksangiz *o'zingizni dardga oldirib qo'yasiz*.

– Dardga?.. *Dardga bo'yin berib bo'lganman*. (Tohir Malik, *Devona*)

Keltirilgan suhbatda "o'zingizni dardga oldirib qo'yasiz" va "dardga bo'yin berib bo'lganman" frazeologik birliklari matn doirasida sinonim bo'lib kelgan. Aslida bu iboralar til tizimida alohida tushunchaviy guruhlariga mansub bo'lib, "o'zini oldirib qo'ymoq" va "bo'yin bermok" shaklida mavjud. Adib matndagi iboralarni "dard" so'zi bilan kengaytirgan. "Bo'yin bermok" iborasi bo'ysunmoq, gapiga kirmok, ko'nmoq [2; 708-b.] ma'nosini, "o'zini oldirmok" esa oriqlab, etdan tushib qolmoq [4; 468-b.] ma'nosini bildiradi. Ushbu matnda esa ular umumiy ruhiy va jismoniy qiyinchiliklarga taslim bo'lish ma'nosini ifodalash uchun xoslangan.

Matniy frazeologik sinonimlardan bir hodisa yoki holatni ikki xil nomlashda foydalaniladi. Quyidagi parchada ishtirok etgan "yoqa ushladi" iborasi nihoyat darajada ajablanmoq [1; 558-b.] ma'nosini, "vujudi larzaga keldi" esa ruhan alg'ov-dalg'ov qilib yubormok [1; 302-b.] ma'nosini bildiradi. Keltirilgan misolda esa bitta referent (juda qattiq bezovta bo'lmoq)ni ifodalashga xizmat qilgan:

– Taqdir, Tilavoldining kallasini, dedingizmi? – deb so'radi Sabohiddin. – Ha. – O'zlarining jiyanlarimi? – Ha, jiyanim. Uni xayrli ish yo'lida qurbon qildik. Sabohiddin yoqa ushladi. Bunday ishlardan keyingi paytlarda hayratga tushmay qolgan bo'lsa-da, vujudi larzaga keldi" (Tohir Malik, *Devona*).

Kontekstual sinonimlar mualliflik sinonimlari deb ham ataladi. Frazeologik birliklarning kontekstual sinonimiyani hosil qilishi yozuvchining iboralarni okkazional ma'noda qo'llashi yoki yangi sinonim ibora yaratishi natijasida hosil bo'ladi. Shu jihatdan kontekstual sinonim frazeologik birliklarni hosil qilishni ijodkorning ibora qo'llash mahorati sifatida izohlash mumkin:

"...Qudsiy hadisda marhamat qilinishicha, Yaratgan egam deb emishki: "Ey Odam farzandi, senga uch narsani ixtiyor qildim: ya'ni, oila ahlingni, mol-u dunyoyingni va amalingni. Ammo mol-dunyoying sen o'lib, *oyog'ing yerdan uzilishi* bilan ortingda qoladi. *Oyog'ing uydan chiqishi* bilan oilang ham ajralib qoladilar. Keyin qabrda bo'lasan. Qiyomat kunida faqat yaxshi amaling foyda beradi." (Tohir Malik, *Savohil*)

Yuqoridagi parchada ikki frazema matn talabi bilan sinonimlikni hosil qilmoqda. Bunda takrorning oldi olinib, shu bilan birga mazmun ta'kidlangan va bo'rttirib tasvirlashga erishilgan. "Oyog'i yerdan uzilmoq" iborasi o'lmoq, vafot etmoq, "oyog'i uydan chiqmoq" iborasi esa so'nggi manzilga ketmoq ma'nosini bildirib kelgan. Lug'atlarda o'lim ma'nosini ifodalaydigan "oyog'ini uzatmoq" [1; 357-b.] frazemasi mavjud bo'lsa-da, ushbu iboralar yozuvchining individual-mualliflik frazemasi hisoblanadi. Ular "oyog" so'zining kishilar ongidagi "tiriklik", "harakat" kabi ma'nolari asosida hosil bo'lgan kognitiv model asosida shakllangan.

Til birliklarining ma'nosi lug'atlarda bir nechta izohlar bilan keltiriladi va kishilar ongida ko'pincha shu ma'nosi bilan muhrlanib qoladi. Iboralarning semantik-funksional imkoniyatlarini keng ochib berish uchun, avvalo, badiiy matndagi ishtirokini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Frazeologizmlar badiiy matnga kiritilar ekan, ularning ma'nosi serqatlamligi, semantik moslashuvchanligi va kontekstual imkoniyatlari kengligi namoyon bo'ladi va lug'atlarda aks etmagan yangidan-yangi ma'nolarni ifodalashi ko'zga tashlanadi. Quyidagi misolga diqqat qilaylik:

"...Kuchli, ayni damda alamli hayqiriq bilan otilib chiqqan bu haqorat Adolatning hushini oldi. *Uncha-bunchaga gap bermaydigan, bo'yin egmaydigan* bu xotin chindan ham "unini o'chirgani" ma'qulroq ekanini anglab, chaqqon o'rnidan turdi-da, oshxonaga qarab yurdi. Bir ozdan so'ng choynak-piyolani ko'tarib kelib, eriga choy quyib uzatdi:

— Dadasi, iching, hovuringiz bosiladi..." (Tohir Malik, *Murdalar gapirmaydilar*)

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "gapini birovga bermaydigan" iborasi "o'zining gapini ma'qullaydigan, o'zini bilag'on hisoblaydigan" [3; 186-b.] ma'nosini bildiradi. Matnda bu iboraning transformatsiyaga uchragan "uncha-bunchaga gap bermaydigan" shakli berilgan. "Bo'yin egmaydigan" frazemasi esa "bo'yin egmoq" iborasidan kelib chiqqan hosila frazema bo'lib, "hech kimga bo'ysunmaydigan, o'jar" ma'nolarini bildiradi. Ushbu iboralar til birligi sifatida sinonimlikni hosil qilmaydi, lekin kontekst ta'sirida, matn muhitida ma'nosi bir-biriga yaqinlashgan va kontekstual frazeologik sinonimlikni hosil qilgan. Personajning xarakteri tasvirida bu ikki ibora "bilganidan qolmaydigan, nohaq bo'lsa-da, o'zining hukmini o'tkazishga intiladigan" umumiy ma'nosini ifodalash uchun ishlatilgan. "Gap bermaydigan" iborasi asosan nutqiy vaziyatlarda ishlatiladi, lekin bu matnda ibora kontekstual ma'noda kelib, personajning umumiy tabiati, xarakterini ochib berish uchun xoslangan.

"...Tish og'rig'ining davosi ombur, deganlaridek, Omonullo o'zidagi qo'rquvni yengishga kuch topib, tish tabibiga kirdi-yu, bir necha daqiqada *ko'zlari moshdek ochildi, qorong'u dunyosi yorishdi*. Avvalgi kuni e'tibor bermagan narsalar endi muhim bo'lib ko'rinarverdi..." (Tohir Malik, *Murdalar gapirmaydilar*)

Mazkur matnda "qorong'u dunyosi yorishdi" iborasining ma'nosi u bilan birgalikda qo'llangan "ko'zlari moshdek ochildi" frazemasi bilan bir butunlikni tashkil etgan va kontekstual sinonimlikni hosil qilgan. "Ko'zi moshdek ochilmoq" frazemasi "aqli joyiga kelmoq, ahvolni yaxshi (to'g'ri) fahmlaydigan holga kelmoq" [3; 1019-b.] ma'nosini bildiradi. "Qorong'u dunyosi yorishdi" frazemasi esa "ruhi yengillashdi" ma'nosida kelgan. Ikkala frazema birgalikda "aqli va fikri teranlashmoq" umumiy ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan. Bunga isbot sifatida keyingi: "...Avvalgi kuni e'tibor bermagan narsalar endi muhim bo'lib ko'rinarverdi", jumlasini keltirilgan. Iboralarni shu yo'sinda qo'llash orqali yozuvchi qahramonning tish og'rig'i ta'sirida jismoniy va ruhiy holati yomonlashishi va undan xalos bo'lgandan keyingi holatini yorqin va obrazli tarzda tasvirlashga erishgan.

"...Bu bolaning *turqi sovuqroq* edi. Birovdan so'kish eshitsa ko'zini lo'q qilib indamay turaverardi. Keyin esa... o'z

bilganidan qolmas edi. Ba'zan maqto'v ham eshitardi. Shunda u sovuqqina tirjayib qo'yardi. *Turqi-tarovatida sovuqlik zuhur etgani* uchunmi bu mahallaga ko'chib kelishganidan beri bolalar uni qatorlariga qo'shishmasdi..." (Tohir Malik, *Shaytanat*, 2-kitob)

Badiiy nutqda ba'zan tilda avvaldan mavjud bo'lgan frazema bilan yozuvchining ijodkorligi mahsuli bo'lgan okkazonal frazema o'rtasida ham kontekstual sinonimlik holatlari kuzatiladi. Matn boshida keltirilgan an'anaviy "turqi sovuq" va yangi yaratilgan "turqi-tarovatida sovuqlik zuhur etgan" iboralari xuddi shunday vazifani bajargan. Bu iboralarga qo'shimcha tarzda qo'llangan "ko'zini lo'q qilib" va "sovuqqina tirjayib" ifodalari bolaning badiiy portretini yaratishda muhim vosita bo'lib kelgan.

Matnga kontekstual sinonimning kiritilishi muallifning muhokama qilinayotgan voqeaga nisbatan munosabatini aniqroq ifodalashga yordam beradi. Frazelogik iboralarining kontekstda sinonimlik hosil qilishi esa ko'proq so'zlar qurshovi va yozuvchining ixtiyoriga bog'liq bo'lgan hodisadir. Bunday iboralarining vazifasi hodisalarni nomlash emas, balki juda kuchli emotsional bo'yoq berish, ekspressivlikni ta'minlash bo'ladi. Matn metafora, metonimiya, mubolag'aga boy bo'ladi. Yozuvchi kontekstual frazeologik sinonimlarni qo'llaganining o'zida doimo matnda gradatsiyani hosil qiladi. Bu leksik sinonimlardan ancha farqli va badiiy asarning ta'sir quvvati kuchli bo'ladi, ifoda yanada mukammal bo'ladi. Quyidagi misolda shunday hodisa kuzatiladi:

"...Sassiq onasini..." deganidayoq Nuriddinning *joni halqumiga keldi*, "tramvayga qo'yaman", deganida esa *qalbida nafrat va g'azab vulqoni portladi-yu, ko'z oldi qorong'ulashdi*. Tomog'iga pichoq tirab turilganini ham unutib, Koshakning naq qanshariga musht tushirdi. Nariga uchib tushgan Koshakni tepmoqchi bo'lganida Qo'tos yo'lini to'sdi..." (Tohir Malik, *Murdalar gapirmaydilar*)

Ushbu matnda keltirilgan "joni halqumiga keldi" va "ko'z oldi qorong'ulashdi" iboralari qahramonning ruhiy holatini bo'rttirib ifodalashda qo'llanilgan bo'lib, "nihoyatda g'azablanmoq, sabr-bardoshi tugamoq" umumiy ma'nosi atrofida birlashgan. "Ko'z oldi qorong'ulashdi" frazemasini "qo'rquvdan, vahimadan bir on ko'rish qobiliyatini yo'qotmoq" [1; 254-b.] ma'nosini bildiradi. Matn talabi bilan o'ziga g'azablanish semasini yuqtirib olgan. Yozuvchi shu bilan birgalikda "*nafrat va g'azab vulqoni portladi*" mualliflik frazemasini qo'llab, qahramon g'azablanish holatining boshlang'ich nuqtasidan eng yuqorisigacha bo'lgan bosqichlarini ifodalashga erishgan.

"...Cho'lponoy singlisiga hamdard bo'la olmayotganday tuyulib, g'azab otashida unga bir-ikki achchiq gap aytishdan *o'zini tuta olmadi*, hatto "birga yashamoqlik hasrati dilingni ezayotgan o'lsa, hasrat do'lidan qutulmoq uchun ayri uyda yashamoqlik istaging o'lsa, ixtiyoringdir", deb yuborishdan *tilini tiya olmadi*..." (Tohir Malik, *Shaytanat*)

Keltirilgan misolda berilgan "o'zini tuta olmadi" va "tilini tiya olmadi" iboralari qahramonning ruhiy holatini ifodalashda takrorning oldini olish bilan bir qatorda, hissiy kechinmani darajalab ko'rsatish vazifasini ham bajargan. "O'zini tuta olmadi" frazemasini ushbu matnda "bir-ikki achchiq gap aytish" birikmasi bilan kelganda "g'azabdan keraksiz gaplarni aytib yuborish" ma'nosini aks ettirib, "tilini tiya olmadi" iborasi bilan ma'nodoshlikni hosil qilgan.

Olingan misollarni tahlil qilish natijasida frazeologizmlarning kontekstda sinonimlik hosil qilishining umumiy uch turini sanab o'tishimiz mumkin:

1. Iboralarining biri semantik transformatsiyalangan kontekstual sinonimlik (ko'zlari moshdek ochildi – qorong'u dunyosi yorishdi).
2. Iboralarining biri strukturaviy transformatsiyalangan kontekstual sinonimlik (turqi sovuq – turqi-tarovatida sovuqlik zuhur etgan).
3. Yangi frazema yaratilishi asosida yuzaga kelgan kontekstual sinonimiya (joni halqumiga keldi – qalbida nafrat va g'azab vulqoni portladi).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, alohida semantik doiraga mansub bo'lgan frazeologizmlar badiiy matnda kelib, umumiy mazmuniy maydonga birlashadi va o'z semantikasida qayta qurilish yuz berib, kontekstual sinonimlarga aylanishi mumkin. Bunda yozuvchining frazeologizmlardan foydalanish mahorati va kontekst asosiy rol o'ynaydi. Umuman olganda, tadqiqotchi olimlar ta'kidlaganidek, frazeologiya sohasida tildan nutqqa tomon harakatlanish bilan xarakterlanadigan dinamik jarayonlar, birinchi navbatda, kontekst tufayli seziladi [7; 64-b.]. Tadqiqot olib borish jarayonida o'zaro ma'nodoshlikni hosil qilayotgan frazeologik sinonimik qatorda birining ma'nosi ustunlik qilishi, ikkinchisining ma'nosi esa unga singib ketishini kuzatdik. "Joni halqumiga keldi" va "ko'z oldi qorong'ulashdi" kabi juftliklarda buni ko'rishimiz mumkin. Bu sinonim juftliklar o'z semantik maydonida o'zgarishga uchrabgina qolmay, badiiy matnning yanada ta'sirchan bo'lishiga sabab bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlarning lisoniy tabiatini belgilashda badiiy matn (kontekst) asosiy vazifani bajaradi. Badiiy matn tarkibiga kirgan frazeologizmlar eski qobig'ini tashlab, yangi kontekstual ma'nolarni o'zida namoyon qiladi. Til birligi sifatida alohida semantik guruhlariga mansub bo'lgan iboralar kontekst ta'sirida umumiy mazmuniy maydon atrofida birlashadi va sinonimlikni hosil qiladi. Matndan tashqarida neytral va passiv baho ottenkasiga ega bo'lgan frazemalar badiiy matn tarkibida kelganda ijobiy yoki salbiy baho ottenkalariga ega bo'ladi yoki ularni kuchaytiradi. Yonma-yon kelgan iboralar birlashib, qahramon ruhiy holatini yoki voqealar rivojini yanada mukammal tasvirlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, kontekstual frazeologik sinonimlarni tizimli-lingvistik tahlil qilish nafaqat yozuvchining frazemalardan foydalanish mahoratini ochib berishga xizmat qiladi, balki frazeosemantika sohasini ham yangi nazariy qarashlar bilan boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. *O'zbek tili frazeologik lug'ati*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b. – ISBN 978-9943-8835-4-3. – URL: <https://uztrj.uz/wp-content/uploads/2025/02/9-0%E2%80%98uzbek-tili-frazeologik-lug%E2%80%98ati.pdf>

2. Madvaliyev A., Xudayberganova D. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 964 b. – ISBN 978-9943-8834-4-4. – URL: <https://akbt.urspi.uz/uz/books/1782>
3. Madvaliyev A., Xudayberganova D. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. II jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 1036 b. – ISBN 978-9943-8834-5-1. – URL: <https://akbt.urspi.uz/uz/books/1783>
4. Madvaliyev A., Xudayberganova D. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. III jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 844 b. – ISBN 978-9943-8834-6-8. – URL: <https://akbt.urspi.uz/uz/books/1785>
5. Yo'ldoshev B. *Frazeologik uslubiyat asoslari: o'quv qo'llanmasi*. – Samarqand: SamDU nashri, 1998. – 200 b. – URL: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tmj/article/view/3856>
6. Неверова Т. А. *Контекстуальная синонимия как средство репрезентации принципа триадности в трилогии Д. С. Мережковского «Христос и Антихрист»* : дис. ... канд. филол. наук : 10.02.01. – Пятигорск, 2008. – 197 с. – URL: <https://www.dissercat.com/content/kontekstualnaya-sinonimiya-kak-sredstvo-reprezentatsii-printsipa-triadnosti-v-trilogii-ds-me>
7. Ященина Ю. С. *Лингвистический контекст как средство актуализации семантики фразеологизмов в современных СМИ: на материале немецких и русских фразеологизмов с милитарным компонентом* : дис. ... канд. филол. наук : 10.02.19. – Саратов, 2022. – 173 с. – URL: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_011241560/